



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

PEDAGOGIK MAHORAT DARSLARIDA MULTIDISIPLINAR YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Niyazmetova Zuxra Matrasul qizi

Urganch Ranch texnologiya universiteti magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida multidisiplinar yondashuv asosida kreativ kompetentlikni shakllantirish metodikasi tadqiq qilinadi. Pedagogik mahorat fani misolida ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interaktiv va integratsiyalashgan metodlar tahlil qilinadi. Maqola nazariy va amaliy jihatlarini birlashtirib, kelajak o'qituvchilarning kreativ yondashuvini rivojlantirishning samarali usullarini taklif etadi.

Kalit so'zlar: multidisiplinar yondashuv, kreativ kompetentlik, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, pedagogik mahorat, metodika

Oliy ta'lim tizimi talablariga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan nafaqat bilim va malaka, balki kreativ fikrlash, muammolarni yechish qobiliyati va innovatsion yondashuvlarni qo'llash ko'nikmalari ham talab etiladi. Shu munosabat bilan, bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "2022–2026 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur"²⁸ Farmonida pedagoglarning malaka va sifat darajasini oshirish, darsliklar hamda o'quv-metodik majmualarni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, shuningdek, maktab ta'limi muassasalarida xalqaro standartlarga mos zamonaviy modellarni yaratish maqsadlari belgilangan. Shu bilan birga, so'nggi yillarda ta'lim sifatini va samaradorligini xalqaro miqyosda e'tirof etilgan yuqori reytinglarga ko'tarish maqsadida, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini interdisiplinar yondashuv asosida rivojlantirishda xalqaro ilg'or tajribalardan foydalanishni ta'minlash uchun me'yoriy huquqiy asoslar yaratilmoqda. Ta'lim tizimida o'qituvchi kasbiy malakasini oshirish, innovatsion va ijodiy yondashuvlarni tatbiq etish zarurati tobora ortib borayotgan bir paytda, Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida ta'lim sifatini oshirish va yosh avlodni bilimli, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashning ustuvor vazifa ekanligini ta'kidlab, shunday degan: "Iqtisodiyot rivojlanishi, yurtimiz va farzandlarimiz kelajagi faqat va faqat ta'lim va muallimga bog'liq."

U shuningdek, ta'lim sifatini oshirish va ustozlarning kasbiy va moddiy sharoitlarini yaxshilashni eng muhim masala sifatida belgilagan:

"Ta'lim sifatini oshirish hamda ustoz va murabbiylarning mehnat va yashash sharoitini yaxshilash – bizning eng ustuvor yo'nalishimizdir." Mazkur qarashlar multidisiplinar yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son. <https://lex.uz/docs/-6008663>



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishda nazariy poydevor vazifasini bajaradi, chunki ular pedagogik jarayonda innovatsion va fanlararo yondashuvlarni tatbiq etish zaruratini yanada oshiradi.

Pedagogik mahorat fani esa o'qituvchi kasbiy faoliyatining asosiy vositasi bo'lib, unda nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish imkoniyati mavjud.²⁹

Multidisciplinar yondashuv – bu turli fanlar va metodlarni integratsiyalash orqali bilimlarni chuqurlashtirish, shuningdek, talabalarda kreativ fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan metodik konsepsiyadir.

Bir yoki bir nechta fan yoki akademik disiplinlarni ma'lum maqsadga erishish uchun birlashtirish yondashuvi, har bir disiplinaning o'ziga xos bilimlari saqlanib qoladi. Izohli lug'atdagi Oxford English Dictionary (OED) va Merriam-Webster manbalarga asoslanib aytadigan bo'lsak, so'zning birinchi ma'lum ishlatilishi 1940–1944 yillarga borib taqaladi.

Multidisciplinarlik atamasi ikki so'zdan tashkil topgan: "multi" lotincha multus so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "ko'p" yoki "bir nechta" degan ma'noni anglatadi, "discipline" esa fan yoki o'rganish sohasini bildiradi.³⁰ Shu ma'noda multidisciplinarlik turli fanlar bir xil muammoni alohida o'rganish jarayonini ifodalaydi, biroq bu fanlar o'rtasida chuqur integratsiya mavjud emas.

Multidisciplinar yondashuv kontsepsiyasi XX asr boshlaridan ilmiy tadqiqotlarda qo'llanila boshlagan. 1983-yilda Hovard Gardner "Ko'p intellekt nazariyasi" asarida multidisciplinarlikning ta'lim jarayonidagi muhimligini alohida ta'kidlagan. Ta'lim kontekstida multidisciplinar yondashuv fanlararo integratsiyani nazarda tutadi va talabalarga turli fanlararo bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini yaratadi.

Bakalavr bosqichidagi "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi Pedagogik mahorat fani doirasida "O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi" mavzusi o'qituvchining kasbiy faoliyatida samarali muloqot, ijobiy psixologik muhit yaratish va talabalarining individual xususiyatlarini hisobga olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ kompetentlikni, ya'ni ijodiy va fanlararo yondashuv orqali samarali muloqot va pedagogik psixologik ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu mavzuni multidisciplinar yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishda qanday ahamiyatga ega ekanligini tahlil etamiz.

- Psixologiya: Talabaning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, motivatsiyasini aniqlash.
- Pedagogika: O'quv jarayonini samarali tashkil etish, darsda interaktiv metodlardan foydalanish.
- Lingvistika va kommunikatsiya: Til va muloqot vositalarini to'g'ri qo'llash, til madaniyati va nutq madaniyatini shakllantirish.

Maqsad: Talaba va o'qituvchi o'rtasida ijodiy, hamkorlikka asoslangan muloqotni rivojlantirish.

²⁹ Мавланова, Р. А., Тўраева, О., Холиқбердиев, К. Педагогика. Тошкент: Ўқитувчи, 2010

³⁰ H. Gardner Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York -2003. Basic Books



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

2. Kreativ kompetentlikni rivojlantirish metodlari

Metod	Tavsifi	Kreativ kompetentlikni rivojlantirishga ta'siri
Rol o'yinlari	Talabalar turli pedagogik vaziyatlarni simulyatsiya qiladi (masalan, konfliktli holatni hal qilish, ijobiy motivatsiya yaratish).	Ijodiy yechim topish, muammoli vaziyatda qaror qabul qilish ko'nikmasini oshiradi.
Muammoli vaziyatlar tahlili	O'quv jarayonida yuzaga keladigan real pedagogik vaziyatlarni muhokama qilish.	Tanqidiy fikrlash va fanlararo yondashuv orqali kreativ yechim topish.
Guruh ishlari va loyihaviy tashqiqlar	Talabalar kichik guruhlarda dars rejasini ishlab chiqadi va o'zaro muloqot qiladi.	Hamkorlikdagi kreativ kompetentlik, kommunikatsiya va psixologik madaniyatni rivojlantiradi.
Refleksiya va o'zini baholash	Talabalar o'z pedagogik muloqotini tahlil qiladi va yaxshilash yo'llarini topadi.	Metakognitiv kreativlik, o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyatini rivojlantiradi.
Innovatsion texnologiyalar	Interaktiv dasturlar, multimedia vositalari, onlayn simulyatsiyalar orqali muloqotni o'rganish.	Texnologik kreativlik va fanlararo integratsiya ko'nikmalarini oshiradi.

Pedagogik mahorat fanida amaliy misol orqali "Talabalar o'rtasida o'quv jarayonida yuzaga keladigan konfliktni psixologik va pedagogik yondashuv bilan hal qilish" masalasini ko'rib chiqamiz. Bunda jarayon quyidagicha olib boriladi:

1. Talabalar guruhlariga bo'linadi va konfliktli vaziyatni muhokama qiladi.
2. Har bir guruh muloqot madaniyati, psixologik usullar va kommunikatsiya vositalarini hisobga olib, yechim ishlab chiqadi.

3. Guruh natijasi interaktiv taqdimot orqali baholanadi va refleksiya qilinadi.

Talabalar nafaqat psixologik va kommunikativ ko'nikmalarini oshiradi, balki kreativ yechim topish va fanlararo yondashuvni amalda qo'llashni o'rganadi.

Multidisciplinar yondashuv asosida pedagogik mahorat fani doirasida O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi mavzusini o'rganish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida quyidagilarni rivojlantiradi:

- Kreativ kompetentlik va ijodiy qaror qabul qilish qobiliyati;
- Fanlararo integratsiya va tanqidiy fikrlash;
- Hamkorlik va muloqot madaniyati;
- Psixologik madaniyat va individual yondashuv.

Talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki pedagogik amaliy ko'nikmalarni, shuningdek, innovatsion va fanlararo yondashuv orqali kreativ kompetentligini rivojlantirgan holda kelajakda samarali o'qituvchi bo'lishga tayyor bo'ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son.
https://lex.uz/docs/-6008663



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

2. Мавланова, Р. А., Тўраева, О., Ҳолиқбердиев, К. Педагогика. Тошкент: Ўқитувчи, 2010
3. Н. Gardner Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York -2003. Basic Books
4. G'ofurova M. "Pedagogik kompetentlikni shakllantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati" // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. — 2025. — № 3(8). — DOI: 10.5281/zenodo.16916901.